



MILLIY IQTISODIYOT EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA FOYDA SOLIG'I MEXANIZMI

Choriyev Abdullo G'ayrat o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Kirish: Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Respublikada tovar va xizmatlar eksport qilinishi borasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida tashqi savdo aylanmasi ko'paymoqda¹.

Foyda solig'i iqtisodiy-moliyaviy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda, shu jumladan iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida foydalanilib kelinmoqda. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash va unga qaratilgan vazifalar doirasida ishlab chiqiladigan strategiyalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashda qulay shart-sharoit yaratib berishda o'z aksini topmoqda. Shu bois, foyda solig'i boshqa soliq turlari kabi xo'jalik sub'ektlari doirasida bo'ladigan moliyaviy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.² Bu esa, bir tomondan, davlat manfaatlarini, ikkinchi tomondan, barcha korxonalar manfaatlarini himoyalashda, shuningdek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun xizmat qilishda ham qo'l kelmoqda.

Eksport bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning ko'pchiligi foyda solig'ini to'laydi. Foydani soliqqa tortishni isloh qilishda foyda solig'ini boshqa soliq turlari bilan bevosita bog'liqligini qay darajada ekanligini yaqqolroq ko'rishga, istiqbolda qaysi soliq turlarini o'zgartirish lozimligi va bu borada qilinadigan islohotlar to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Korxonalardan olinadigan foyda solig'i esa umumiy ishchi kuchiga va ishsizlik darajasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, foyda solig'i stavkalarini pasaytirish o'zining ichki va tashqi investitsiyalarga ijobiy ta'siri orqali ish o'rinlari yaratilishini tezlashtirishi va ishchilar uchun yuqori imkoniyatlar yaratishi mumkin.³ Ayniqsa, kam malakali ishchilar uchun talab ko'p bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda uning ta'siri yuqori.

¹ Niyazmetov I.M., Safarov U.A., Radjapov X.J. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. 2-son.

² Jo'rayev A.S., Berdiyeva U.A. "Soliq ma'murchiligi" o'quv qo'llanma" - M: Toshkent-2019. S – 201

³ Jo'rayev A. S. Soliq nazariyasi, - T.: "Iqtisod-moliya", 2018 y



Soliq yuki va foyda solig'i stavkasini pasaytirish hisobiga O'zbekiston Respublikasida soliq bazasi kengaymoqda hamda foyda solig'i to'lovchilari soni oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida foyda solig'ining stavkasi yillar kesimida qaraydigan bo'lsak 1997 yilda 36,0 foiz bo'lgan bo'lsa, 2000 yilda 31,0 foiz, 2005 yilda 15,0 foiz, 2010 yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2019 yil 1 yanvardan boshlab foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020 - 2023 yillarda bu ko'rsatkich 15,0 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida foyda solig'i bo'yicha tushum yildan yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2018-2022 yillarda foyda solig'i tushumi va uning ulushi tahlili, mlrd.so'm⁴

No	Ko'rsatkichlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
1	YaIM miqdori	424 728,7	529 391,4	602 193,0	734 588 ,0	888 342,0
2	Davlat byudjeti daromadlari	79 099,0	112 165, 4	132 938, 0	164 799 ,0	202 043, 0
3	Bevosita soliqlar	15 656,2	31 676,8	45 206,9	58 930, 0	64 447,0
4	Foyda solig'i tushumi	3 502,2	16 360,6	28 712,3	38 363, 0	37 650,0
5	Foyda solig'ining YaIMdagi ulushi, %	0,8	3,1	4,8	5,2	4,2
6	Foyda solig'ining Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi, %	4,4	14,6	21,6	23,3	18,6
7	Foyda solig'ining bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi, %	22,4	51,6	63,5	65,1	58,4

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2018-2022 yillarda O'zbekistonda YaIM miqdori – 424 728,7 mlrd.so'mdan 888 342,0 mlrd. so'mga, Davlat byudjeti daromadlari miqdori– 79 099,0 mlrd. so'mdan 202 043,0 mlrd.so'mga, bevosita soliqlar miqdori– 15 656,2 mlrd. so'mdan 64 447,0 mlrd.so'mga, foyda solig'i miqdori– 3 502,2 mlrd. so'mdan 37 650,0 mlrd.so'mga oshgan. Mazkur davrda foyda solig'ining YaIMdagi ulushi – 0,8 foizdan 4,2

⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



foizga, Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi – 4,4 foizdan 18,6 foizga, bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi – 22,4 foizdan 58,4 foizga o‘sgan⁵.

O‘zbekistonda oxirgi besh yilda foyda solig‘i to‘lovchilar soni tahlili qiladigan bo‘lsak, 2018 yilda 7 559 ta, 2019 yilda 53 051 ta, 2020 yilda 115 572 ta, 2021 yilda 145 434 ta hamda 2022 yilda 184 142 ta korxonalar foyda solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblangan.

O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘ini to‘lovchilar soni 2018 yilga nisbatan 2022 yilda 24,4 barobarga oshgan, bunga asosiy sabab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ijrosi deb hisoblaymiz.

Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilda 37,6 trln so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 713,0 mrd so‘mga yoki 1,9 foizga kamaygan.

Oltin va mis qazib oluvchi korxonalardan (NKMK va OKMK) tashqari boshqa soliq to‘lovchilar hisobidan foyda solig‘i tushumlari 2022 yilda 20,3 trln so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 7,6 trln so‘mga yoki 60 foizga oshgan

Xususan, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasida ro‘yxatda turuvchi soliq to‘lovchilar (NKMK va OKMKsiz) tomonidan foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilda 13,9 trln so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 5,4 trln so‘mga yoki 64 foizga oshgan.

Hududiy soliq to‘lovchilar tomonidan foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yilda 6,4 trln so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 2,2 trln so‘mga yoki 52 foizga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari (iqtisodiyot tarmoqlari) bo‘yicha foyda solig‘i soliq tushumlarining tahliliga ko‘ra, tushumlarning eng katta ulushi (88 foiz) iqtisodiy faoliyatning 5 ta turiga to‘g‘ri kelgan.

2020-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha foyda solig‘ini davlat byudjetiga tushumlari tahlili (4.1.2-jadval). 2022 yilda moliyaviy va sug‘urta faoliyatida (1,7 barobarga), qurilish sohasida (1,6 barobarga), shuningdek ishlab chiqarish hamda ulgurji va chakana savdo sohalarida (deyarlik 1,4 barobarga) soliq tushumlarining sezilarli o‘shishi kuzatilgan⁶.

Foyda solig‘i summasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan soliq stavkalar asosida aniqlanadi. Banklar, bozor va savdo komplekslari, polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar, mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchilar 20%, tovarlarning elektron savdosini amalga

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



o'shiruvchi soliq to'lovchilar 7.5%, qolgan soliq to'lovchilar 15% stavkalarda foyda solig'i to'laydilar.

Respublikada tovar va xizmatlar eksport qilinishi borasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 51,0 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,3 mlrd. AQSH dollariga yoki 25,2 % ga ko'paydi.



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **50 973,8** +25,2 %



Saldo

(2022- y.: 40 717,9)

2023- y.: **-10 033,3** (2022- y.: -9 014,0)



Eksport

2023- y.: **20 470,2** +29,1 %

(2022- y.: 15 852,0)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2023- y.: **30 503,6** +22,7 %

(2022- y.: 24 865,9)



2-rasm. Tashqi savdo aylanmasi (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)⁷

Tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi 20 470,2 mln. AQSH dollariga yetdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 29,1 % ga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida regressiv soliq stavkasi, asosan, soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida qo'llanilib, bu asosan korxonalarining mahsulot (xizmat, ish)ni chetga eksport qilishini rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Jumladan:

Foyda solig'i bo'yicha:

Eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valutaga eksport qilish ulushiga bog'liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi. Eksport ulushi:

— realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo'lganida belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

— realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganida belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha, ham shu tartib amal qiladi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



Respublikamiz soliq tizimida eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator imtiyozlarning mavjudligi milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi⁸.

XULOSA

Xulosa qiladigan aytganda, Foyda solig'i to'lovchilar soni 4,0 barobarga, foyda solig'i tushumi esa 13,8 barobarga oshgan. Shuningdek, foyda solig'ining YalMdagi ulushi 2,6 foizga o'sgan. Bundan ko'rinib turibdiki, foyda solig'i bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Ijobiy natijalarga erishishda keyingi ikki yilda foyda solig'i stavkalarining optimallashtirilishi, korxonalar foydasidan olinadigan soliqlarning qisqartirilishi, barcha soliq to'lovchilar uchun bir xil soliq solishga qaratilgan islohotlarni alohida qayd etish lozim⁹.

Foyda solig'i bo'yicha amalga oshirilgan o'zgarishlar iqtisodiyotning yanada rivojlanishi va uning raqobatbardoshligi oshishining asosiy omili bo'ldi. Qolaversa, foyda solig'i tushumining ortishi davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minladi.

Fikrimizcha, foyda solig'i bo'yicha oxirgi yillar uchun belgilangan stavkalar foyda solig'i tushumining yanada ortishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimardanov M.I., Abdullaev B.N. (2015) Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr.
2. Бортникова И.М. (2018) Налоги и налогообложение: учебное пособие / сост.: Донской ГАУ. – Персиановский : Донской ГАУ, 202 с.
3. Джалилов Р.Х. (2022) Нормативно-правовая база по порядку организационно-камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103
4. Komilov M.M. (2020) Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash omilidir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5.
5. Murojaatnoma (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 20 dekabr 2022 yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
6. Niyazmetov I.M., Safarov U.A., Radjapov X.J. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. 2-son.
7. Пансков В.Г. (2015) Изменение порядка зачисления средств НДС: введение НДСсчетов / В.Г.Пансков // Вестник АККОР. № 3 (35). – С. 17-18

⁸ Abdullaev A.B. (2020) Soliq to'lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent. 2020.69 bet.

⁹ Abdullaev A.B. (2020) Soliq to'lovlari hisobi va tahlilini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent. 2020.69 bet.



8. Tashmuradova B.E. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.

9. Gail Cole (2021) Value-added tax: What is VAT and who has to pay it? Jul 31, 2023. <https://www.avalara.com/blog/en/north-america/2021/07/what-is-vat.html>.

10. James K. (2011) "Exploring the Origin and Global Rise of VAT," Manash University, Melbourne.

11. Vahobov A., Jo'raev A. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.. – T.: "Sharq" nashriyoti.

12. Davletov F. (2023) QQSni kamayishi O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini faollashtiradi. <https://review.uz/oz/post/snijenie-nds-aktiviziruet-biznes-klimat-vuzbekistane.7.09.2023>.

13. Зотиков Н.З. (2019) Добавленная стоимость: практика обложения // Вестник Евразийской науки, №3, <https://esj.today/PDF/73ECVN319.pdf>.

14. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. (2000) Soliq huquqi.—Toshkent: «Moliya nashriyoti.

15. Mirziyoev Sh.M. (2023) Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 18 avgust.

16. Муханов А.Т. (2023) Основное понятие налога на добавленную стоимость, его особенности и характеристика. Международный научный журнал. Вестник науки. № 1.

17. Смирнова Е.В. (2018) Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1.

18. Toshmatov Sh. (2004) Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya, Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".

19. Jonas Blume , Maja Bott "Information Technology in Tax Administration in Developing Countries", - M: KfW Development Bank, 2021

20. Jo'rayev A. S. Soliq nazariyasi, - T.: "Iqtisod-moliya", 2018 y

21. Farida I. B. Soliq huquqi, - T.: "Toshkent", 2016 y

22. "O'zbektelekom" AK ning 2016-2018 yilgi moliyaviy hisobotlari

23. "Bozor, pul, kredit" jurnali 2018-2019-yillardagi sonlari

24. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi jurnali" 2018-2019-yillardagi sonlari

25. "Xalq so'zi gazetasi" 2018-2019-yillardagi sonlari

26. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

27. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

28. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti



29. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti